TILSHUNOSLIK

UDK: 811.133.1+49+412/413 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a59**

O‘ZBEK VA RUS TILLARINING LEKSIK TIZIMLARIGA QIYOSIY TAVSIF

СОПОСТАВИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЛЕКСИЧЕСКИХ СИСТЕМ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ

COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF LEXICAL SYSTEMS OF THE UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES

Xamrayeva Yorqinoy Nabijanovna[1]

[1]**Xamrayeva Yorqinoy Nabijanovna** – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Qarshi davlat universiteti rus tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya

Maqolada o’zbek va rus tillarining leksik sistemalari mantiqiy-lingvistik jihat prizmasi orqali qiyosiy aspektda tahlil qilingan. Maqola muallifi til leksikasi bu bir yerga qorishtirib jamlab qo‘yilgan turli xil so’zlarning tartibsiz yig‘indisi emas, balki aniq tartib asosida tizimga solingan leksemalar majmui ekanligini e’tirof etgan holda, o’zbek va rus tillarining leksik tizimlarini tashkil etuvchilar, ya’ni fonetik, leksik, morfemik va h.k. birliklarga qiyosiy tavsif beradi.

Tillarni qiyoslab o‘rganishda avvalo ularning sistem tabiatini inobatga olish masadga muvofiq. Maqolada rus va ozbek tilshunosligida leksikaga tizim sifatida yondashish masalasi yoritilgan ishlar sanab o‘tiladi. Qardosh yoki qardosh bo‘lmagan tillarni chog‘ishtirib tahlil qilishda qiyoslanayotgan tillar leksikasining, xususan, leksik birliklarning mazmun tizimini e’tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek va rus tillari leksik tizimlari avvalo bu tillarning ham genetik, ham tipologik jihatdan turli xil til oilalariga mansubligi bilan farqlanadi.

O‘zbek va rus tillari leksik fondini qiyoslash jarayonida muallif, shuningdek, rus tilidan bizning tilimizga va turkiy tillardan rus tiliga o‘zlashgan so‘zlarga ham e’tibor qaratadi, bunda o‘zlashma so‘zlar bilan yuz bergan ma’no torayishi, ma’no kengayishi yoki so‘z semantik tarkibining butunlay o‘zgarishi kabi holatlarni tahlil qiladi.

Umuman, til leksikasini tadqiq qilishda, bu qiyosiy tahlil yoki tavsiflash usuli bo‘lishidan qat’i nazar, leksik birliklar orasidagi turli aloqalar, xususan paradigmatik munosabatlar diqqat markazida bo‘lishi lozim. Shu bois maqolada o‘zbek va rus tillari leksik birliklari o‘rtasidagi sinonimik, antonimik va omonimik munosabatlar ham qiyosan tahlil etilgan.

Аннотация

В статье лексические системы узбекского и русского языков анализируются в сравнительном аспекте через призму логико-лингвистический подхода. Автор статьи отмечает, что лексика языка представляет собой не случайный набор хаотично смешанных между собой разных слов, а совокупность лексем, систематизированных на основе четкого порядка, и даёт сравнительную характеристику фонетических, лексических, морфемных и пр. единиц узбекского и русского языка как организаторов лексических систем данных языков.

При сопоставительном изучении языков целесообразно в первую очередь учитывать их системный характер. В статье перечислены работы по подходу к лексике как системе в русском и узбекском языкознании. При перекрестном анализе родственных или несродственных языков важно учитывать смысловую систему лексики сравниваемых языков, в частности, лексических единиц. Лексические системы узбекского и русского языков различаются прежде всего тем, что эти они принадлежат к разным языковым семьям как генетически, так и типологически.

В процессе сопоставления лексического фонда узбекского и русского языков автор обращает внимание также на слова, заимствованные из русского языка в наш язык и из тюркских языков в русский. Анализирует такие случаи, как расширение значения, сужение значения, а также полное изменение семантической структуры слов.

Вообще, при изучении лексики языка, независимо от того, сопоставительный анализ это или описательный метод, в центре внимания должны находиться различные взаимоотношения между лексическими единицами, в частности парадигматические отношения. Следовательно, в статье в сопоставительном плане рассматриваются синонимические, антонимические и омонимические отношения между лексическими единицами узбекского и русского языков.

Abstract

In the article, the lexical systems of the Uzbek and Russian languages are analyzed in a comparative aspect through the prism of a logical-linguistic approach. The author of the article notes that the vocabulary of a language is not a random set of different words chaotically mixed together, but a set of lexemes systematized on the basis of a clear order, and gives a comparative description of phonetic, lexical, morphemic and other units of the Uzbek and Russian languages as organizers of lexical systems of these languages.

When studying languages comparatively, it is advisable to first take into account their systemic nature. The article lists works on the approach to vocabulary as a system in Russian and Uzbek linguistics. When cross-analyzing related or unrelated languages, it is important to take into account the semantic system of the vocabulary of the

languages being compared, in particular, lexical units. The lexical systems of the Uzbek and Russian languages differ primarily in that they belong to different language families, both genetically and typologically.

In the process of comparing the lexical fund of the Uzbek and Russian languages, the author also pays attention to words borrowed from the Russian language into our language and from the Turkic languages into Russian. Analyzes such cases as expansion of meaning, narrowing of meaning, as well as a complete change in the semantic structure of words.

Actually, when studying the vocabulary of a language, regardless of whether it is a comparative analysis or a descriptive method, the focus should be on various relationships between lexical units, in particular paradigmatic relationships. Consequently, the article examines synonymous, antonymic and homonymic relations between lexical units of the Uzbek and Russian languages in a comparative manner.

Kalit so‘zlar: *leksika, leksik tizim, leksik-semantik munosabatlar, paradigma, ko‘pma’nolilik, tipologiya, qiyosiy tahlil.*

Ключевые слова: *лексика, лексическая система, лексико-семантические отношения, парадигма, полисемия, типология, сравнительный анализ.*

Key words: *vocabulary, lexical system, lexico-semantic relations, paradigm, polysemy, typology, comparative analysis.*

KIRISH

Manbalarda “leksika” atamasi haqida “tildagi barcha so‘zlar va iboralar yig‘indisi” degan ta’riflarga duch kelamiz. Bu ta’rifda biron xato yoki g‘alizlik yo‘q, albatta. Faqat shuni unutmaslik lozimki, leksika bu bir yerga qorishtirib jamlab qo‘yilgan turli xil so‘zlarning tartibsiz yig‘indisi emas, balki aniq tartib asosida tizimga solingan leksemalar majmuidir. Til tizimini tashkil etuvchilar sirasiga tildagi har qanday birlik, ya’ni fonetik, leksik, morfemik va h.k. lar kiradi, so‘z va semantik jihatdan unga teng keladigan birliklar (jumladan, turg‘un birikmalar) esa leksik tizimni tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tillarni qiyoslab o‘rganishda avvalo ularning sistem tabiatini inobatga olish masadga muvofiq. Rus tilshunosligida leksikaga tizim sifatida yondashish masalasi XIX asrda yuzaga keldi. Dunyo tilshunosligida birinchilardan bo‘lib rus olimi I.A.Boduen de Kurtene leksikaning o‘zaro turli munosabatlarga asoslangan elementlar yaxlitligidan iborat butunlik ekanligini nazariy jihatdan asoslab berdi. Olim leksik tizimni umumlashgan qurilma sifatida tahlil qilarkan, uni yaxlit o‘rganish vazifasini so‘zning fonetik va morfologik tuzilmalari hamda gapning morfologik qurilishini o‘zaro bog‘liq holda tavsiflashda ko‘rdi. Tilning sistem tabiati, jumladan, leksikaning tizimlilik xususiyati olimning shogirdlaridan biri bo‘lgan L.V.Shcherba ilmiy tadqiqotlarining asosiy mavzusiga aylandi. L.V.Shcherba “Umumiy lug‘atchilik tajribasi” asarida tildagi har bir so‘z muayyan tizimni tashkil qilishi va bu so‘z ma’nosidagi o‘zgarishlar faqat ana shu tizim ichidagina tushunarli bo‘lishini e’tirof etgan edi [7; 265]. Leksik-semantik birliklarning sistem tabiati xususidagi nazariy fikrlarni olimning izdoshlari asarlarida, xususan, L.A.Bulaxovskiy, V.V.Vinogradov va boshqalarning tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. V.V.Vinogradov so‘z va uning ma’nolari umumxalq tilida o‘sha millatgagina tushunarli bo‘lgan ma’lum bir tizimni tashkil etishini ta’kidlagan holda, leksik-semantik birliklar sistemasini tashkil etuvchi asosning parametrlarini ham aniqlab bergan: “Leksemaning ma’nosi so‘zshakl yordamida ifodalangan tushunchaga muvofiqligi bilangina belgilanmaydi, balki o‘sha leksema mansub bo‘lgan so‘z turkumi, grammatik kategoriya; umumxalq tomonidan qabul etilgan va so‘zlovchilar ongida mavjud bo‘lgan qonun-qoidalar, mazkur birlikning ma’nodoshlari, ekspressiv-stilistik bo‘yoqlari va boshqa omillar bilan bog‘liq holda aniqlanadi”, — deb ta’kidlagan edi olim [3; 68].

XX asrning ikkinchi yarmida rus tilshunosligida, xususan leksikologiya va leksikografiyada leksik-semantik birliklar majmuini tizim sifatida tadqiq etishga bo‘lgan urinishlar yanada kuchaydi. Buni A.A.Ufimseva tadqiqotlarida ham ko‘rish mumkin. Olima so‘z va uning ma’nosi/ma’nolari leksik-semantik tizimning elementi ekanligiga urg‘u berish bilan birga, til lug‘aviy tarkibini tadqiq etishda uning predmeti, maqsadi va uslubiga ko‘ra uch yo‘nalishni ajratib ko‘rsatadi: a) leksikani turli xil mavzu guruhlariga ajratib tahlil qilish; b) tilning ma’noviy jihatini tushunchaviy va mazmuniy maydonlar asosida tadqiq etish; v) bir yoki bir necha tillardagi leksik-semantik guruhlarni tarixiy-semasiologik aspektda o‘rganish [6; 128].

O‘zbek tilshunosligida leksikani tizim sifatida o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘tgan asrning 90-yillarida H.Ne’matov tomonidan boshlab berildi va bugunga qadar bu sohada bir qator ilmiy va uslubiy ishlar dunyo yuzini ko‘rdi. Bunday tadqiqotlar sirasida H.Ne’matov, O.Bozorovning

“Til va nutq”, H.Ne’matov, R.Rasulovlarning “O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari”, Sh.Rahmatullaevning “Sistem tilshunoslik asoslari”, B.Menglievning “O‘zbek tilining struktural sintaksisi” kabi ishlari alohida o‘rin tutadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘xshash yoki noo‘xshash, qardosh yoki qardosh bo‘lmagan tillarni chog‘ishtirib tahlil qilishda qiyoslanayotgan tillar leksikasining, xususan, leksik birliklarning mazmun tizimini e’tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. U yoki bu chet tilni o‘rganishda qiyosiy aspektning rolini tan olgan holda shuni ham ta’kidlash joizki, tillarni, xususan o‘zbek va rus tillarini chog‘ishtirib tadqiq etishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zbek auditoriyasiga rus tilini qiyosiy metod bilan o‘rgatishdan farqlash lozim. Qiyosiy tipologik tadqiqotlar bir qancha ziddiyatlarni o‘z ichiga oladi, bunday tadqiqotlar uchun ilmiy tahlilning turli jihatlari boshlang‘ich nuqta vazifasini o‘taydi. Tipologiya tadqiq ko‘lamiga ko‘ra ikki xil, ya’ni umumiy va xususiy bo‘lishi mumkin. Umumiy tipologiyada ikki va undan ortiq til tahlilida ushbu tillarning umumiy tipologik jihatlari, qaysi til guruhiga mansubligi, ular orasidagi asosiy tafovutlar tadqiqotchining diqqat markazida bo‘ladi. Xususiy tipologiya esa qiyoslanayotgan tillarning ma’lum bir tomonlari yoki elementlarini o‘rganadi. O‘zbek va rus tillarining leksik tizimlarini qiyoslashda biz ana shu xususiy tipologiyaga tayanamiz.

O‘zbek va rus tillari leksik tizimlari avvalo bu tillarning ham genetik, ham tipologik jihatdan turli xil til oilalariga mansubligi bilan farqlanadi. Xususan, o‘zbek tili genetik jihatdan turkiy tillar oilasiga, tuzilishiga ko‘ra agglyutinativ tillar guruhiga mansub bo‘lib, uning leksik tizimidagi asosiy birliklar qadimgi turkiy, umum-turkiy va o‘zbekcha so‘zlardan iboratdir. Rus tili esa genetik jihatdan hind-yevropa tillari oilasiga kiradi, tipologik jihatdan u flektiv til sanaladi va, tabiiyki, ushbu tilning asosiy lug‘at bazasini umumslavyan, qadimgi rus va hozirgi ruscha so‘zlar tashkil qiladi. Qiyoslanayotgan tillar lug‘aviy fondining tarixiy-tadrijiy shakllanib borishi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi turli omillar ta’sirida sodir bo‘lganligi bois, ushbu tizimlarda paydo bo‘lgan lug‘aviy qatlamlar ham turlichadir. O‘zbek tilida turkiy bobo tildan o‘tib kelgan va hozirgi o‘zbekcha so‘zlardan tashqari, arabcha va fors-tojikcha o‘zlashmalar asosiy o‘rinni egallasa, rus tilida Yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar talaygina.

O‘zbek tili leksikasi asosan:

- umum-turkiy so‘zlar *(men, biz, bosh, tog‘, bir, ikki, ona, ota...)*
- o‘zbekcha so‘zlar *(ishchi, ishla, tinchlik, yoshlik, jangchi, bilim...)*
- arabcha so‘zlar *(axborot, maktab, madaniyat, adabiyot, haqiqat...)*
- fors-tojikcha so‘zlar *(oftob, gul, dastro‘mol, dutor, daraxt...)*
- o‘zlashma so‘zlar *(samolyot, kompyuter, roman, dizayner, avtobus, trolleybus, drama...)*

kabi qatlamlardan iborat.

Rus tilining leksik qatlamlari:

- umumslavyan so‘zlari: *дом, город, голова, мать, отец, брат, день…*
- qadimgi rus so‘zlari: *галка, снегопад, добрый, потолок…*
- asl ruscha so‘zlar: *учитель, водитель, зарплата, раздевалка, зажигалка…*
- boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar: *кофта, булка* (polyak), *арбуз, казна* (turkiy), *грамота, лавр* (grek), *иллюзия, компот* (fransuz), *вокзал, трамвай* (ingliz), *опера, дуэт* (ispan), va h. K. [1; 48].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida rus tilidan va shu til orqali boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar so‘nggi statistik ma’lumotlarga ko‘ra qariyb 50 % ni tashkil etadi. Tilimiz leksikasi tarkibidagi ruscha-baynalmilal so‘zlar ilmiy-texnikaviy adabiyotlarda ham, og‘zaki nutqda ham faol so‘zlar qatorida qo‘llanadi. Ammo o‘zlashma so‘zlar bilan rus tilidagi aynan shu so‘zlar o‘rtasida ma’lum farqli jihatlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilarda o‘z aksini topadi.

O‘zbek tiliga tarixiy davrlarda, ya’ni XX asr boshlariga qadar kirib kelgan ruscha so‘zlar ma’lum fonetik o‘zgarishlarga uchrab, o‘zbekchalashib ketganligi uchun talaffuziga ko‘ra asl o‘zbekcha so‘zlardan farq qilmaydi hamda yozuvda talaffuzga mos tarzda ifodalanadi. Bunga *cho‘t, cho‘tka, adyol, qulupnay, rom, cherkov* kabi so‘zlar misol bo‘ladi. Bu talaffuzlar hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun me’yor hisoblanadi. Biroq nisbatan keyinroq tilimizga kirib kelgan so‘zlar o‘zbeklar nutqida qanday talaffuz etilishidan qat’iy nazar, adabiy tilda rus tilidagi fonetik strukturasini saqlab qolgan: *[istol] stol, [ustul] stul, [ishkop] shkaf, [duxtir] doktor, [melisa] militsiya, [moshin] mashina, [banka] bank* va hokazo.

O‘zlashma so‘zlar asosida o‘zbek tilida qo‘shimcha qo‘shish orqali bir qancha yangi so‘zlar ham yasalgan: *traktorchi, kursdosh, gazlashtirish, samolyotsozlik, kostumbop, sportchi, kompyuterchi* va hokazo. Bunday so‘zlar negizidagi fonetik va orfografik xususiyatlar ham rus tili me’yorlariga mos keladi.

Rus tilining leksik tarkibida ham o‘zbekcha, fors-tojikcha va arabcha so‘zlar mavjud bo‘lib, ularning deyarli barchasi fonetik o‘zgarishga uchragan, shu sababdan bunday so‘zlarning o‘zbek va rus tillaridagi talaffuzi hamda yozilishi o‘rtasida ma’lum tafovutlar ko‘rinadi: *арбуз, арка, товар, казна, урюк, инжир, кишлак, карагач, саксаул, тандыр, кураш, лагман, манты, плов* va hokazo.

O‘zbek tilidagi ruscha o‘zlashma so‘zlarda ma’no torayishi, kengayishi yoki o‘zgarishi hollari kuzatiladi. Masalan, *ruchka* so‘zi rus tilida *qo‘lcha* (kichkina qo‘l – yosh bolaning qo‘li), *tutqich*, *yozuv quroli* kabi uchta ma’noga ega, o‘zbek tilida esa bu so‘z faqat *yozuv quroli* ma’nosida qo‘llanadi. *Kartmon* (karman – cho‘ntak) so‘zi esa o‘zining rus tilidagi haqiqiy ma’nosidan chekinib, o‘zbek tilida butunlay boshqa ma’no (pul solinadigan xaltacha) kasb etgan bo‘lsa, *samovar* so‘zi rus tilidagi birgina *choy qaynatiladigan idish* ma’nosidan tashqari tilmizda qo‘shimcha ma’no – *choyxona* ma’nosini ham hosil qilgan.

O‘zbekcha va ruscha so‘zlarning ma’nolari miqdor jihatidan ikkala tilda har doim ham muvofiq kelavermaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi *o‘qimoq* so‘zi ham «o‘qimoq», ham «o‘rganmoq» ma’nolarini beradi. Rus tilida esa bu ikki ma’no ikki xil so‘z (читать, учить) bilan ifodalanadi.

S.I.Ojegovning izohli lug‘atida *идти* so‘zining 24 ta ma’nosi berilgan, o‘zbek tilidagi *bormoq* so‘zi esa «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da berilishiga ko‘ra, oltita ma’noga ega. Xuddi shuningdek, O‘TIL da *chiqmoq* so‘zining 22 ta ma’nosi ajratilgan, rus tilidagi *выйти/выходить* so‘zi esa 7 ta ma’noni beradi. “Nutqda so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmay, tushunchalar o‘rtasidagi qaysidir jihatdan bog‘liqlik e’tiborga olinadi” [5; 133]. O’zbek va rus tillari orasidagi leksik-semantik tafovutlar esa ushbu tillarning lug‘aviy tizimlaridagi o‘ziga xosliklar bilan aniqlanadi. Umuman olganda, ko‘pma’nolilik xususiyati har ikkala tildagi so‘zlarga ham xos bo‘lib, ularning aksariyat qismi o‘zbek tilida ham, rus tilida ham eng qadimgi leksik qatlamlarga mansubdir. Ayrim hollarda o‘zbek tilidagi polisemantik so‘zlarning bosh va hosila ma’nolari rus tilidagiga aynan mos keladi. Masalan: *oltin uzuk – золотое кольцо, oltin kuz –золотая осень, oltin qo‘llar – золотые руки* yoki *temir eshik – железная дверь, temir qorqa, железный люк, temir iroda – железная воля, o‘lik it – мёртвая собака, o‘lik sukunat – мёртвая тишина* va boshqalar. Keltirilgan misollardagi *oltin, temir, o*’lik so‘zlari rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan birikmalarda ham bosh va hosila ma’nolarini saqlab qoladi. Biroq tarjimada har doim ham bunday ayniyat vujudga kelavermaydi. Ba’zan bir tushunchani ifodalovchi so‘zlarning o‘zbek va rus tillaridagi me’yorlariga xos bosh leksik ma’nolari bir xil bo‘lgani holda, ulardan hosil qilingan yangi ma’nolar ikki tilda bir-biriga mutlaqo muvofiq kelmaydi. Masalan, qozonning tutqichlari shaklan quloqqa o‘xshash bo‘lgani sababli, o‘zbeklar tilida bu tushuncha ham *quloq* deb ataladi. Ruslar esa bu o‘rinda tutqich ma’nosi dagi *ruchka* so‘zini qo‘llaydilar, «*ухо котла*» degan birikma esa rus tilida butunlay mantiqsiz va kulgili bo‘lib qoladi. Xuddi shuningdek, rus tilidagi *нос корабля* («*kemaning burni*»), *глухая ночь* («kar tun») kabi birikmalar tilimizda mavjud emas va biz bu o‘rinda, tabiiyki, boshqa so‘zlardan foydalanamiz: *kemaning tumshug’i, jimjit tun* kabi.

Demak, rus va o‘zbek tillari leksikasini qiyoslashda so‘zshakl maqomiga teng birliklardan emas, balki leksemalar va ularning barcha qurshovlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bundan kelib chiqadiki, o’zbek va rus tillari leksik tizimlarini qiyosan tahlil etishda leksemalar orasidagi paradigmatik munosabatlarni ham e’tiborga olish lozim. Rus olimi T.V.Jerebiloning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati”da “PARADIGMA” so’zi 26 marta qayd etilgan bo‘lib, bunda “Antonimik paradigma”, “Omonimik paradigma”, “Genetik paradigma”, “Fe’l paradigmasi”, “Olmosh paradigmasi”, “Tur-jins paradigmasi”, “To‘liq paradigma”, “Noto‘iq paradigma”, “Morfologik paradigma” kabi tushunchalarga izoh berilgan [4; 252-253]. O.S.Axmanovaning xuddi shunday nomdagi lug‘atida “paradigma” atamasiga “ma’lum so‘z turkumi doirasidagi so‘zlar va so‘zshakllarning o‘zgarishlari majmui” [2; 310] sifatida baho berilgan bo‘lsa, “paradigmatika” atamasiga quyidagicha izoh keltiriladi: “PARADIGMATIKA (assotsiativ jihat). Til birliklarining shu tizimning elementlari, tarkibiy qismlari majmui sifatida qaralishi (elementlari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladigan sintagmatikadan farqli o‘laroq), nutq jarayonida ifoda etilmasa-da, ushbu tilda

so‘zlashuvchilar ongida turli munosabatlari va barcha ma’nolari bilan mavjud bo‘lishi . Chunonchi, “paradgimatik munosabat” atamasi yuqoridagi izohda keltirilgan mazmunni o‘zida mujassam etadi. Shu bois tilshunos A.Hojiev tildagi ushbu hodisani “bir paradigmaga birlashuvchi til birliklarining o’zaro munosabati” [8; 78] sifatida ta’riflaydi.

Qiyoslanayotgan har ikkala tilda shaklan yoki mazmunan o‘xshash va farqli birliklar mavjud. O‘zbek va rus tillarida ma’nosi bir-biriga yaqin, ammo shakli va ma’no qirralari bilan bir-biridan farqlanib turuvchi so‘zlar mavjud bo‘lib, ular nutqning ravon va ta’sirchan bo‘lishini, fikrning aniq ifodalanishini ta’minlaydi. Odatda ma’nodosh so‘zlar lug‘aviy sinonimlar, uslubiy sinonimlar, ideografik sinonimlar, mutlaq sinonimlar kabi turlarga ajratiladi. Masalan: o‘zbek tilida *katta-ulkan-azim,* rus tilida *большой-крупный-огромный* kabi ma’nodosh so‘zlarni lug‘aviy sinonimlar sirasiga; betaraflik, ijobiy yoki salbiy munosabat bo‘yoqlari anglashilib turgan o‘zbekcha *yuz-cheshra-jamol-aft-bashara* va ruscha *лицо-рожа-физиономия* kabi so‘zlarni uslubiy sinonimlarga; sinonimik qatordagi bir so‘zning ma’nosi boshqasinikiga nisbatan kuchliroq bo‘lgan *baqirmoq-hayqirmoq* yoki *pichirlamoq-shivirlamoq* kabi so‘zlarni esa ideografik sinonimlar sirasiga kiritish mumkin, rus tilida bunga *спать-дремать, есть-кушать* kabi ma’nodosh so‘zlar misol bo‘la oladi; ma’nosining hajmi, uslubiy bo‘yog‘i va nutqda birining o‘rnini ikkinchisi bosa oladigan *oltin-tilla*, *o‘t-olov*, *орфография-правописание, лингвистика-языкознание, бегемот-гипопотам* qabilidagi so‘zlar zanjiri esa mutlaq sinonimlar qatoridan joy oladi.

Har ikki tilda ham ma’nodoshlar qatorini hosil qilgan so‘zlarning barchasi albatta bir so‘z turkumiga mansub bo‘ladi. Masalan, ot-sinonimlar: *ovoz-tovush-un-sas-sado*, *граница-грань-рубеж-предел;* sifat-sinonimlar: *chiroyli-go‘zal-lobar-barno*, *грустный-печальный-унылый-невесёлый;* ravish-sinonimlar: *ko‘p-mo‘l-bisyor-serob-behisob, гладко-ровно-плавно-складно;* fe’l-sinonimlar: *jilmaymoq-ishshaymoq-irjaymoq-tirjaymoq*, *бояться-пугаться-страшиться-трусить.*

O‘zaro zid ma’no ifodalovchi lug‘aviy birliklar – antonimlarni o‘zbek va rus tillarida semantik jihatdan quyidagi ikki turga ajratish mumkin: birinchisi – ma’noviy jihatdan har doim bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlar, ya’ni lug‘aviy antonimlar: *oq-qora, yaxshi-yomon, kun-tun, oriq-semiz, baland-past, oz-ko‘p* (o‘zbek tilida); *белый-чёрный, хороший-плохой, день-ночь, толстый-тонкий, высоко-низко, мало-много* (rus tilida); ikkinchi turdagi so‘zlar matndan tashqarida o‘zaro zid ma’no ifoda etmaydi, biroq matn talabiga ko‘ra zid ma’noli so‘zlarga aylanib, kontekstual, ya’ni matniy antonimlarni hosil qiladi. Quyida o‘zbek va rus tillarida misol qilib berilgan she’rlarga diqqat qiling:

Oqar daryoga ham kimdir band bergan,
Hayot kimga *zahr*, kimga *qand* bergan. (A.Oripov)

Человеку надо мало:
чтоб *искал* и *находил,*
Чтоб имелись для начала
Друг один и *враг* один. (Р.Рождественский)

Yuqoridagi misolda qo’llangan *zahr* (zahar) va *qand* so’zlari aslida antonim so’zlar emas, biroq shoir she’r matnida bu so’zlarni bir-biriga qarama-qarshi qo’yib, matniy antonimlarni hosil qilgan. Ruscha she’rdagi *искать* va *находить* so’zlari ham aslida antonim so’zlar bo’lmasa-da, muallif bu so’zlarga she’r matnida qo’llangan lug‘aviy antonimlar (*друг-враг*) so’zlari qatorida alohida urg‘u bergan.

Har ikki tilda ham tub va yasama antonimlar mavjud bo’lib, ular bir o’zakka o’zbek tilida zid ma’noli qo’shimchalarni, rus tilida esa prefiks (old qo’shimcha)larni qo’shish orqali hosil qilinadi. Masalan, o’zbek tilida: *baxtli-baxtsiz, vafodor-vafosiz, badavlat-bedavlat, odobli-beodob;* rus tilida: *красивый-некрасивый, честный-нечестный, везучий-невезучий* va hokazo.

Ma’lumki, o’zbek tilida o’zakdosh antonimlar faqat ot va sifat turkumiga oid so’zlar doirasida uchraydi (*baxt-baxtsizlik, adolat-adolatsizlik*). Rus tilida esa so’z o’zagi oldidan mahsuldor yasovchilar hisoblanadigan turli xil prefikslar qo’shish orqali ot, sifat, fe’l turkumlariga oid antonimik juftliklar hosil qilinaveradi. Masalan: *веселье-невеселье, любовь-безлюбье* (ot), *бездарный-одарённый, спокойный-беспокойный* (sifat), *открыть-закрыть, внести-вынести, недоплыть-переплыть* (fe’l). Rus tilida ham o’zbek tilidagi kabi son va olmosh turkumiga oid so’zlar doirasida zid ma’noli so’zlar uchramaydi. Bunday so‘zlar faqat matn talabiga ko‘ra hosil

qilinishi mumkin. Masalan: *Yig‘ilishga **hech kim** kelmaydi, ziyofatga esa **hamma** boradi. Oyijon, hech qachon «**ikki»** olib, sizni uyaltirmayman, doim «**besh»**ga o‘qiyman.*

O‘zbek tilida zid ma’noli so‘zlar ba’zan juft holda ham qo‘llanishi mumkin: *Tunu kun* tinim bilmayman. Hayotda ko‘p *yaxshi-yomonni* ko‘rdim. Bola *oq-qorani* farqlay boshladi. Misollardan ko‘rinib turibdiki, bunda juft holda ishlatilgan so‘zlar o‘zlarining antonimlik xususiyatini yo‘qotib, yangi ma’no hosil qilgan. Misollarda berilgan *tunu kun* so‘zlari «hamma vaqt», *yaxshi-yomon* juftligi «har xil odamlar», *oq-qora* esa «turli narsalar va hodisalar» ma’nolarida qo‘llangan. Rus tilida esa antonimlarni bunday qo‘llash hollari uchramaydi.

Shakldosh so‘zlar, ya’ni omonimlar o‘zbek va rus tillarida birdek mavjud bo‘lib, ularning lug‘aviy, uslubiy va grammatik xususiyatlari ham umumiy va farqli jihatlarga ega. Har ikkala tilda ham bir so‘z turkumiga oid omonimlar: *ot (ism) – ot (hayvon), o‘t (maysa) – o‘t (olov); мир (olam), мир (tinchlik), долг (burch), долг (qarz)*; hamda turli turkumlarga oid omonimlar: *soch (ot) – soch (buyruq maylidagi fe’lning II shaxs, birlik shakli); печь (tandir, ot) – печь (pishirmoq, fe’lning infinitiv shakli), есть (xo‘p bo‘ladi ma’nosidagi yuklama) – есть (yemoq fe’lining infinitiv shakli*) uchraydi. O‘zbek tilida *ol, sol, qor, kul, ot, o‘t,* kabi ko‘plab so‘zlar bir tomondan ot, ikkinchi tomondan fe’l turkumiga oid so‘zlar sifatida omonimik munosabatni hosil qiladi. Rus tilida esa omonimlar ko‘proq bir so‘z turkumi doirasida mavjud bo‘lib, turli turkumlarga oid bo‘lgan shakldoshlar nisbatan kamroq uchraydi.

Rus olimlaridan A.A.Reformatskiy rus tilida omonimlarning taraqqiy etib borishini chetdan so‘z o‘zlashtirish bilan bog‘lagan bo‘lsa, O.S.Axmanova omonimlar polisemantik so‘zlar ma’nolarining o‘sishi hisobiga yuzaga kelishini e’tirof etgan. M.Mirtojiev, A.Hojiev kabi olimlarimiz esa omonimiyani yuzaga keltiruvchi ikki xil (ichki va tashqi) manbalarni qayd etganlar. Ichki manba deganda, so‘z yasalishi yoki so‘zshakllarning hosil qilinishi *(ilmoq, chaqmoq, quymoq)* nazarda tutilgan bo‘lsa, tashqi manba ikki omil bilan, ya’ni chetdan so‘z o‘zlashtirish hamda shevalardan adabiy tilga so‘z olish bilan belgilangan. Ichki manba yordamida hosil qilingan birliklar, ya’ni yasama omonimlar rus tilida ham bisyor: *ударник* (qurol qismi), *ударник* (zarbdor), *норка* (*иуа* so‘zining kichraytirish shakli), *норка* (mo‘ynali hayvon) va hokazo. Boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar hisobiga hosil qilingan omonimlar ham har ikkala tilda ko‘plab uchraydi, bunga o‘zbek tilida *gaz* (yonilg‘i) – *gaz* (uzunlik o‘lchovi), *tok* (uzum tanasi), *tok* (elektr oqimi) kabi so‘zlar, rus tilida esa *блок* (ittifoq) – *блок* (og‘ir yuk ko‘taruvchi mashina), *лук* (piyoz) – *лук* (kamon) kabi so‘zlar misol bo‘la oladi. O‘zbek tilida turli shevalardan olingan so‘zlarning adabiy tilda o‘rin topishi natijasida ham ko‘plab omonimlar yuzaga kelgan: *so‘ri* (tok tiragi) – *so‘ri* (chorpoya), *shoti* (arava asosi), *shoti* (narvon) va hokazo. Rus tilida dialektlardan adabiy tilga kiritilib, boshqa so‘z bilan omonimik munosabat hosil qilgan so‘zlar deyarli uchramaydi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, u yoki bu tildagi leksik-semantik birliklarning uzviylik va izchillik asosida bir tizimni hosil qilishi masalasi ko‘p jihatdan o‘sha til sohibi, undagi an’analar, yangiliklar va o‘zgarishlarning amalga oshiruvchisi bo‘lgan inson va uning bilimlari tizimi bilan bog‘liqdir. Shunday ekan, leksikaning sistem xususiyati, ya’ni tilning tizimlilik hodisasi muayyan qonunlar, tartib-qoidalar, sxemalar, an’analarga rioya qiluvchi, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda o‘z qiyofasini o‘zgartirishga moyil bo‘lgan ma’lum bir tirik organizmning muayyan turi sifatida qaralishi lozim. Leksik minimumlar ustida olib borilgan tadqiqotlar esa bunday ishlar natijasi o‘laroq ikki yoki undan ortiq tilni o‘zida jamlagan, so‘zliklari ma’lum mezonlar asosida ishlab chiqilgan, foydalanuvchiga so‘z va uning semantik ko‘lami haqida aniq va to‘liq ma’lumotlar bera oladigan lug‘atlar nashr etilgandagina o‘z samarasini ko‘rsatadi. O‘zbek va rus tillari leksikasining ma’noviy ko‘lamini qiyosiy jihatdan yoritishning ilmiy asoslari ma’lum darajada ushbu tillarni chuqurroq o‘rganish, til o‘zlashtirish sifatini oshirish kabi ilmiy va ta’limiy maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Азизов О., Сафаев А., Жамолхонов Ҳ. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 256 б. (Azizov O., Safaex A., Jamolhonov H. Comparative grammar of Uzbek and Russian languages).

2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969. – 608 с. (Akhmanova O.S. Dictionary of linguistic terms).

3. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. Избранные труды. – М.: Наука, 1977. (Vinogradov V.V. Lexicology and lexicography. Selected works).

4. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010. – 486 с. (Zherebilo T.V. Dictionary of linguistic terms).

5. Мамажонов А., Саминов А. Сўз бирикмаси қисмларида семантик мутаносиблик ва номутаносиблик. // FarDU. Ilmiy xabarlar. 2021. № 3. 133-137 b. (Mamajonov A., Saminov A. Semantic correspondences and inconsistencies of parts of phrases).

6. Уфимцева А.А. Опыт изучения лексики как системы: (на материале англ. яз.) Изд. 2-е, испр. — Москва : УРСС, 2004. – 286 с. (Ufimtseva A.A. Experience in learning vocabulary as a system: (based on English material).

7. Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии // Языковая система и речевая деятельность. — М., 1974. — С. 265-304. (Shcherba L.V. Experience in the general theory of lexicography).

8. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2002. – 166 б. (Hojiev A. Dictionary of linguistic terms).